BUXORO VILOYATI ROMITAN TUMANI HOKIMINING QARORI

201000, Romitan tumani, Buxoro ko'chasi, 3-uy, tel: (65) 55-2-14-45, romitan.t@exat.uz

2022 - yil 13 - dekabr 575-2-40-Q/22 Romitan tuman hokimligi

Tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari, fermer xo'jaliklari, korxona, tashkilot, muassasa, xususiy korxonalarda harbiy xizmatga majbur fuqaro va chaqiriluvchilarning harbiy hisobini yuritishga oid ishlar holatini tekshirish to'g'risida

Tumanda O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 martdagi 119-sonli «Harbiy hisobni yuritish to'g'risida»gi qarori va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari harbiy hisobini yuritishni tashkil qilish va olib borish tartibi bo'yicha qo'llanma talablarini bajarish, rezerv va zahiradagi ofitserlar, serjant va soldatlar, hamda chaqiriluvchilarning harbiy hisobini yuritish, mahalla fuqarolar yig'inlari, fermer xo'jaliklari, korxona, tashkilot, muassasa, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xususiy korxonalarda harbiy xizmatga majbur fuqaro va chaqiriluvchilarning harbiy hisobini yuritishga oid ishlar holatini yanada yaxshilash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tuman mudofaa ishlari bo'limiga mahalla fuqarolari yig'inlari raislari, tashkilot, korxona, muassasa, xususiy korxonalar, fermer xo'jaliklari, firmalar rahbarlari bilan birgalikda harbiy hisob va bronlash ishlariga alohida e'tibor qaratib, belgilangan rejaga asosan harbiy hisobga va bronlash ishlarini olib borilishini tekshirib, natijalarni qayd etilgan dalolatnomalar nusxasini tuman

hokimligiga taqdim etib borsinlar.

2. Tumandagi barcha korxona, tashkilot, o‘quv muassasalari, xususiy korxonalar, fermer xo‘jaliklari, firmalar rahbarlari, hamda mahalla fuqarolar yig‘ini raislari harbiy hisobni yuritish va zirxlash ishlari uchun ma’sul xodim tayinlab, ularni mudofaa ishlari bo‘limi bilan uzluksiz aloqada bo‘lishini, talab etilgan ma’lumot, hisobotlarni taqdim etishni va mashg‘ulotlarga ishtirok etishni ta’minlasinlar.

3. Barcha tashkilot, korxona o‘quv muassasalari, xususiy va qo‘shma korxonalar, fermer xo‘jaliklari rahbarlariga qo‘l ostida ishlayotgan 18 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan harbiyga majburlarning harbiy biletlarini yangi nusxadagi “Harbiy guvohnoma”ga almashtirish yuklatilsin.

4. Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (M.Uzoqov)ga mudofaa ishlari bo‘limiga harbiy hisobga olish va harbiy hisobdan chiqarish faqat yangi nusxadagi “Harbiy guvohnoma” asosida amalga oshirish yuklatilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Sh.Hayitov)ga tuman fuqarolarining fuqarolik pasportlarni olish, almashtirish xorijga chiqish va kirish, fuqarolik pasportlarini hisobga olish va chiqarishni faqat yangi nusxadagi “Harbiy guvohnoma”ga asosan amalga oshirish yuklatilsin.

6. Tuman hududida joylashgan barcha tashkilot, korxona, o‘quv muassasalari, xususiy va qo‘shma korxonalar, fermer xo‘jaliklari, mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga keng jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarni olib borish, mudofaa ishlari bo‘limiga yangi nusxadagi “Harbiy guvohnoma”ga sobiq ittifoq harbiy biletlarini hamda 1996 yilgacha berilgan harbiy guvohnomalarini almashtirishda yaqindan yordam berish uchun alohida texnik ishchi xodim ajratish yuklatilsin.

7. Tuman mudofaa ishlari bo‘limida jangovor va safarbarlik tayyorgarligini oshirish maqsadida “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi tuman telekamunikatsiya bog‘lamasi (Sh.Rajabov)ga tuman mudofaa ishlari bo‘limi, mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘rtasida o‘z hisoblaridan uzluksiz telefon aloqasi o‘rnatilishi ta’minlansin.

8. Tuman hokimining 2022 - yil 30 apreldagi 173-2-40-Q/22-sonli qarori o`z kuchini yo`qotgan deb topilsin.

9. Ushbu qarorning nazorati tuman hokimining o‘rinbosari F.Salomov

zimmasiga yuklatilsin

Tuman hokimi **Barnoyev U. I.**